

PAPER

## LOLAQIZG'ALDOQDEK UMR

Saidakbarova Muqaddas Muhammadrahimovna<sup>1</sup>, \*, Toshboltayeva Tojixon Abdilhamidovna<sup>1</sup>, Qurbonova Feruza A'zamovna<sup>2</sup>, Xasanova Barno Yusupovna<sup>1</sup>, Mamatqulova Feruza Tohirovna<sup>1</sup>

<sup>1</sup>Qo'qon DU, dotsent,(PhD)

<sup>2</sup>Qo'qon DU, katta o'qituvchi,(PhD)

\* saidakbarova@gmail.com

### Abstract

Ushbu maqolada shoir Muhammad Yusuf ijodi va she'riyati haqida fikr va mulohazalar yuritiladi. Shoir ijodida ramziy obrazlar talqini, ijodkorning badiiy mahorati qirralari tahlili, shoir hayoti va ijodining namunaviy talqini borasida so'z boradi.

**Key words:** Ijod, yaxshilik, ramz, obraz, tabiat va insoniyat, she'riyat, badiiy mahorat, abadiyat.

### KIRISH

Muhammad Yusuf kitobini olib she'rlar o'qiyman. Butun ijodida inson qalbining og'riqlari haqida ash'or bituvchi Muhammad Yusuf boqiy umrining yana bir yilini yashab o'tdi. She'rlari ravon va nadomatlarga to'la. Qatralarida esa falsafiy fikrlar g'ujg'on o'ynaydi. Men shoirmi tanishga harakat qilaman. U yaxshiliklarga oshno bo'lgan shoir ekanidan quvonaman. Shoir odamlarga yaxshilik qilishni sevar edi. Umrining mohiyati ham shunda edi. "Yaxshilik qilgan odam mangu yashaydi", deydi Muhammad Yusufning o'zi ham.

Dunyo yolg'onlari yig'latdi Muhammad Yusufni.

Dunyo saroblari qon qildi Muhammad Yusufni

Osmonning oxirini topish uchun qiynaldi uning joni. Insonni dilning to'riga mehrob qilmoqchi M.Yusuf

O'zbekning o'zligini namoyon qilib ketdi M.Yusuf.

Kuyib, yonib sevdi o'z vatanini.

U tabiatni ariq boyidagi yalpizlarga suyanib kuzatdi. Ayniqsa beozor, go'zal lolaqizg'aldoqni ardoqlab sevdi va o'zi ham lolaqizg'aldoqqa aylandi. She'rlari ramzlarga to'la. Har bir ramzda olam – olam ma'no bor. Inson dardlarini misralarga tizadi shoir. Misralarni egilib, sinib ketguday ehtirosli fikrlar bilan bezatadi. Fikrlar toriga o'ralib ruh iltirob chekadi. Joni ming tilimga aylangan qahramon tabiatga iltijo qilib udan madad so'raydi. Insoniyat va jamiyat sirlarini bilmoq istaydi. Lekin insonni anglamoq mushkillaridan charchagan qahramon, yana tabiatga murojaat etadi. "Jayron" deb ataluvchi she'ri "Jayron,

nega ko'zing to'la yosh" deb boshlanadi. Jayron obrazi orqali o'z atrofini, o'zi yashayotgan muhitni, muhit saroblarini ifoda etmoqchi bo'ladi. Jayron – qalbi yolg'onlardan yiroq, mo'min, beozor bo'lgan insonning ramzidir. Jamiyatdagi ayrim holatlarda yaxshilarning xorligi, haqiqatning zorligi, adolatning "dili yaraligi" "jayronga murojaat qilish bilan yoritiladi. Jayronning ko'zi to'la yosh. Tabiatda jonzotlar o'z yaralarini lablari bilan yalab tuzatadilar. Jayronning yarasini shoir jon malhami ila davolamoqchi. Hayot yo'lining mashaqqatlaridan holdan to'lgan bosh qahramonning hayot so'qmoqlarida lolaqizg'aldoqlar ochilgan. Jamiyatda she'r qahramoniga – jayronga, haqiqatga tosh otganlar, riyoga oshno bo'lganlar – shoir fikricha gumrohlardir. Chunki ularning qalb ko'zi basir, dili jaholatga asir bo'lgan notovonlardir.

Shoir jayronning ko'z yoshidan dili og'rib unga madadga shoshadi. Xuddi jayron kabi uning ham sayyodlari – dushmanlari borligini ta'kidlaydi. Mo'min zotning yig'isi yuragini timdalaydi. She'rdagi jayronga murojaat ham ramzdir. Insoniyat jonzotlar dili va tilini hali ahglab etmaganlar. Mo'min zot – jayron faqat ko'z yoshiga kuch berishi atrof muhitni o'zgartira olmasligi, mavjud borliq uning istaklarini ushaltirmasligidan fig'on chekadi. Bu dunyoning nokaslari, ezgulikni ko'rolmaydiganlar shoirning dilini ham yaralaganlar. Yaralar esa yuragini qonga to'ldirgan.

Ezilganlarga elka tutmoqchi bo'ladi shoir, jayronning – mo'min insonning tug'ishgan og'asi bo'lib, dardiga shifo topmoqchi bo'ladi. Lekin unda na imkon, na iloj bor. Shu sabab xulosada ham jayronning ko'zlari yoshga to'lganligi sabablarini

anglamoqchi bo'lib, yana bir bora murojaat qiladi. "Jayron, nega ko'zing to'la yosh".

Muhammad Yusufning yana bir she'ri " Qizg'aldoq" deb nomlanadi. Bu she'r ham yana tabiatga murojaat tarzida yaralgan. Qizg'aldoqning koshonasi yo'q, erdan bo'lak. Xatto lirik qahramon hamdard bo'lib, peshonasini o'pay desa, peshonasi yo'q. Qisqa umr ko'ruvchi lolaqizg'aldoq jayron o'tgan so'qmoqlarga yoshini to'kadi. Shoir diliga esa qon bo'lib turgan qizil yuzi tegib turadi.

Lolaqizg'aldoqning qadrini, dilini bilguvchi yo'qdir shoirdan bo'lak. Tanho shoirgina uning do'stidir. Sabab shoir qalbi ham lolaqizg'aldoqdek lolagundur. Shul sabab Muhammad lolaqizg'aldoqning yaqin, eng yaqin do'stidir...Shoir alvon rangdagi lolaqizg'aldoqning qabri ustida xilpirab turishini orzulaydi. Chunki o'xshash umr sohiblari g'oyaviy birlikka egadir. Hayotni madh etishda shoir ham, lolaqizg'aldoq ramziy obrazi ham bir-biriga yaqin. Har ikkalasi ham qisqa yashab go'zallik va yaxshilik ulashuvchilar bo'ldi. Shoirming umr bekati qisqa bo'lsa ham o'zi ta'kidlaganidek, "O'lsa o'zi o'lar, So'zi o'lmaydi". Lolaqizg'aldoqning o'zi so'nsa ham go'zalligi odamlar ongida bir umr yashaydi. Lolaqizg'aldoqning qabri ona er, Muhammad Yusufning esa... "Haqiqiy shoirning qabri bo'lmaydi", ya'ni odamlar yuragiga "ko'milar asl shoirlar".

She'riyat – ko'zgu. Bu ko'zguda hamisha olam aksi bo'ladi. Agar olam ijodkorga yoqib qolsa, she'ri va fikri ham yaxshiliklar targ'ibotiga aylanadi. Lekin inson har doim kurashib yashashga o'rgangan. Ya'ni ko'zguning ikkinchi tomoni ham bor. Olamni o'zgartirmoqchi bo'lgan shoir qalbida iztiroblar yig'indisi vujudga keladi. Chunki shoir hamisha olamning xulosasi haqiqatda ekanligiga ishonadi.

Shoir olamni o'rganar ekan o'ziga xos yo'ldan bordi. Uning og'riq tomonlarini anglashga, ularning sabablarini aniqlashga intiladi. Lekin "Osmonning oxiri qayerda, dedim bir donishmandga,- deb yozadi M.Yusuf. U miq etmadi. Menga juda yoqdi bu javob. Osmonning oxiri yo'q, axir!"

M.Yusuf dadil, ishonchli, xotirjam va mehribon munosabatlarni yoqtirardi. Munosabatga kirishishning eng oddiy va samimiy vositasi bir-biriga ishonch bildirib, bir-birini hurmat qilishda ekanligi bor mohiyati bilan anglab etadi.

Keng yaylovlarda erkin yurgan, erkin yashash uchun dunyoga kelgan otlar ham xatto mehrga muhtoj bo'lishar ekan. Ular mehnatkash va samimiy insonlarni sevar ekanlar. Qanchalik odamlar olamini yaxshi bilsangiz, munosabatga kirishishda qiynalmaysiz. Agar umrni faqat boylik topish uchun vosita deb o'ylasangiz xatò qilasiz. M.Yusuf she'riyatida tabiiy borliq hukmronlik qiladi. Shoir ijodida do'stona munosabatlar hamma muammolarning hal qilishning asosidir. Inson hayotda o'zligini topa olsa – uning haqiqatga erishgani shu.

Qisqagina umr ko'rib, odamlar qalbida uzoq yashab kelayotgan ijodkorlar she'riyatining mohiyati ham haqiqatni chuqur ahglashlarida va uni badiiy in'ikos ettirishlarida bo'ladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. M.Yusuf."Saylanma". Toshkent. 2005y. "Meros" nashryoti.
2. M.Yusuf."Ulug'imsan Vatanim".Toshkent. 2000 y. "O'zbekiston" nashriyoti.
3. M.Yusuf."Alyorim qolur".Toshkent. 2019 y. "Tamaddun" nashriyoti
4. M.Yusuf."Bevafo ko'p ekan". Toshkent. 1988. "Yangi avlod" nashriyoti
5. M.Yusuf."Ishq kemasi".Toshkent. 1990 y. "Tamaddun".nashriyoti.